UMUMIY O‘RTA TA’LIM MAKTABLARIDA “JAHON IQTISODIY VA IJTIMOIY GEOGRAFIYASI” FANINI O‘QITISH NAZARIYASI VA METODIKASI

Abdullayev M.D.
Chirchiq davlat pedagogika universiteti mustaqil izlanuvchisi

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 20-September 2023 yil
Ma’qullandi: 25-September 2023 yil
Nashr qilindi: 29-September 2023 yil

KEY WORDS

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanining o‘qitish sifatini yaxshilash va takomillashtirish hozirgi maktab ta’limining dolzarb masalalaridan hisoblanadi

ABSTRACT

Ushbu maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanini o‘qitish nazariyasi va metodikasi yoritilgan, ilmiy va amaliy xabardorlik kompetensiyasi, maqsadi hamda vazifalari yoritilgan. Shuningdek, boblar va undagi mavzularning bayoni tahlil qilingan.

Umumiy o‘rta ta’lim muassasalarida “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanining o‘qitish sifatini yaxshilash va takomillashtirish hozirgi maktab ta’limining dolzarb masalalaridan hisoblanadi. Ta’limga zamonaviy innovatsion pedagogik texnologiyalarni joriy etishning yetarlicha ilmiy asoslanmaganligi va amaliyotga tadqiq qilinmaganligi, fanni o‘qitishda foydalaniladigan elektron resurslarini yaratish, onlayn ta’lim olish uchun ilovalarini yaratish, undan foydalanish metodikasini yaratish ishlab chiqish zarurati, yangi metodlar va innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tayyorlangan uslubiy qo‘llanma hamda tavsiyalarning yetishmasligi mazkur tadqiqot yo‘nalishda ilmiy-metodik tadqiqotlarni rivojlantirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fani dunyoning tabiiy resurslari, aholisi va xo‘jalik faoliyatini o‘rganishi hamda iqtisodiy-ijtimoiy hayotning hududiy tashkil etilishi qonuniyatlarini tavsiflaganligi uchun bu fan mamlakatimizning jahon hamjamiyati bilan yanada integratsiyalashuviga zamin yaratadi. Bunday sharoitda umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanining ahamiyati yanada dolzarblashmoqda. Jahonda ta’lim sohasining rivojlanishi fanlarni interfaol metodlar, axborot-kommunikatsiya va pedagogik texnologiyalar asosida o‘qitishni takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida o‘qitiladigan ko‘pgina fanlarning mazmunini zamon talablari asosida qayta ko‘rib chiqish islohotlari amalga oshirilmoqda. Shu jumladan, umumiy o‘rta ta’lim maktablarining 9 va 10-sinflarida o‘qitiladigan “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanida ham fan dasturini qayta tuzildi va 2022-2023 o‘quv yilidan boshlab 10-sinflar uchun Milliy o‘quv dasturi amaliyotga joriy etildi hamda yangi darslik nashrdan chiqdi.

Umumiy o‘rta ta’limning “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanidan ta’lim olish jarayonida o‘quvchilar quydagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi zarur.

Ilmiy xabardorlik kompetensiyasi:

- jahonning siyosiy xaritasi, uning tuzilishini hamda o‘zgarib borish xususiyatini tushunadi;
- turli tabiiy resurslarning jahon bo‘yicha hududiy taqsimlanishi va unga ta’sir etuvchi geografik omillarni tushunadi;
- tabiatdan foydalanishning oqilona va nooqilona shakllarini farqlaydi;
- dolzarb global ekologik muammolarining mohiyati, sabablari, oqibatlari, ularning yechimini topish va ta’minlash borasida jahon hamjamiyatining harakat choralarini tushunadi;
- dunyo aholisi soni, o‘sishi, yosh-jins tarkibi va joylashuvining asosiy xususiyatlari, ularning o‘zaro bog’liqligi va ta’sirini tushunadi;
- dunyo aholisining irqiy, milliy va diniy tarkibi, asosiy dinlarning hududiy tarqalishini tavsiflaydi;
- jahonda urbanizatsiya (shaharlashuv) jarayonining mohiyatini tushunadi;
- jahon xo‘jaligi tarmoqlar va hududiy tarkibini, uning o‘zgaruvchanligini tushunadi;
- dunyoning yirik mintaqa va davlatlarining iqtisodiy rivojlanganligi va ixtisoslashuvini tavsiflaydi va o‘zaro taqqoslaydi;
- jahon mintaqalari va yirik davlatlari tabiiy sharoiti va resurslarining xususiyatlari, ularning aholi joylashuvi va xo‘jalikka ta’sirini tushunadi;
- jahon mintaqalari va yirik davlatlari aholisining o‘sishi, tarkibi va joylashuvini tavsiflaydi;
- jahon mintaqalari va yirik davlatlarining sanoati, qishloq xo‘jaligi va xizmatlar sohasining ixtisoslashuvi, unga ta’sir etuvchi omillarni tavsiflaydi.

Amaliy kompetensiya:

- siyosiy xaritalardan davlatlar va ularning poytaxtlarini ko‘rsatadi;
- xaritalar yordamida davlatlarning geografik o‘rnini baholaydi, tabiati, aholisi va iqtisodiyoti haqida ma’lumotlarni oladi, ularni taqqoslaydi;
- aholi dinamikasi, tarkibi, zichligi va urbanizatsiyaga doir masalalarni yechadi;
- turli ma’lumot manbalaridan foydalanib geografik mavzularda taqdimot tayyorlay oladi;
- qit’alar, davlatlar, poytaxtlar, dunyodagi yirik shaharlar, relyef shakllari, konlar, suv obyektlarining nomlarini to‘g‘ri qo‘llaydi.

“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanida o‘rganiladigan tabiiy, ijtimoiy hodisalar va tushunchalar, qonuniyatlarni o‘quvchilarga tushunarli holda umumiy o‘rta ta’lim maktablari darsliklarida sodda va aniq bayon etish, bunda asosiy e’tiborni o‘quvchilarning yosh psixologik xususiyatlarini, bilim olish, o‘quv materialini tushunish hamda puxta va mukammal o‘zlashtirish imkoniyatiga e’tibor qaratilgan.

“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kursi jahon mamlakatlarining tarkibiy tuzilishi, Yer shari tabiiy resurslarining jahon iqtisodiyotidagi ahamiyati, Yer shari aholisi, mehnat resurslari, jahon iqtisodiyoti tarmoqlari ularni tashkil etish va joylashtirish qonuniyalari, xalqaro geografik mehnat taqsimoti, mamlakatlar o‘rtasidagi xalqaro iqtisodiy aloqalar va jahonning yirik davlatlari bilan tanishtirib, o‘quvchilarni bilimlar bilan qurollantiradi. Bu kurs o‘quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish va rivojlantirishga juda katta ta’sir ko‘rsatadi. Umumiy o‘rta ta’lim maktablarida “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi”

kursidek o‘quvchilar dunyoqarashining kengayishiga ta’sir ko‘rsatadigan fan yo‘qdir.

Dunyoning hozirgi tabiatdan foydalanish jadal rivojlanayotgan, ishlab chiqarishning texnik va texnologik rivojlanishi, iqtisodiy-ijtimoiy, demografik, geosiyosiy va ekologik sharoit o‘zgarib borayotgan bir davrida maktablarning geografiya, xususan “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kursining ahamiyati ham ortib boradi. Shu nuqtai nazardan kursning mazmun mohiyatini zamon talablari asosida o‘zgartirib borish ham maqsadga muvofiqdir.

“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanining ahamiyati, uning ilm-fan taraqqiyotida, ishlab chiqarish, tabiatdan foydalanish va ijtimoiy-madaniy sohalarining kundalik hayotda tutgan o‘rni bilan belgilanadi.

“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kursi o‘qitishning asosiy **maqsadi**, o‘quvchilarga xorijiy mamlakatlarning iqtisodiy-ijtimoiy geografiyasi bo‘yicha zaruriy bilimlar berish. Bunda o‘quvchilar mamlakatlarning iqtisodiy geografik xususiyatlarini tavsiflovchi aniq materiallarni o‘zlashtirishlari va uning sabablarini tushuntirib yetishlari nazarda tutiladi.

“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanining **vazifalari**: o‘quvchilarda tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy obyekt, jarayon va hodisalar, jahonning tabiiy sharoiti, aholisi va iqtisodiyoti, jamiyat va tabiatning o‘zaro aloqadorligi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ishlab chiqarishni oqilona tashkil etish, global va regional muammolar haqida tushunchalarni shakllantirish, tahliliy-tanqidiy fikrlashga o‘rgatish, olgan nazariy bilimlarni amalda qo‘llash ko‘nikmalarini rivojlantirishdan iborat.

“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” kursi 2 bo‘lim, 7 bob va 60 mavzudan iborat (jadval).

jadval

“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” fanining tarkibiy tuzilishi

Bo‘limlar	**Boblar va ularga ajratilgan soatlar**
I-bo‘lim. Jahonning umumiy tavsifi	1-bob. Jahonning siyosiy xaritasi (4 soat)
	2-bob. Jahonning tabiiy resurslari (3 soat)
	3-bob. Jahon aholisi (5 soat)
	4-bob. Jahon xo‘jaligi (9 soat)
II- bo‘lim. Jahonning regional tavsifi	5-bob. Yevropa mamlakatlari (9 soat)
	6-bob. Osiyo mamlakatlari (17 soat)
	7-bob. Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika mamlakatlari (13 soat)

“Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasi” dasturi o‘quvchilarda kurs materiallarini o‘rganish bilan birga mamlakatlarning tiplari haqida yetarli tushuncha tarkib topishini, mintaqalar va mamlakatlardagi hozirgi jahon iqtisodiyotida muhim rol o‘ynayotgan mamlakatlar bilan tanishib chiqishlarini e’tiborga olgan holda tuzilgan.

Jahonning siyosiy xaritasi bobida jahon mamlakatlaridagi jahon siyosiy xaritasi tushunchasi, hozirgi vaqtdagi jahon siyosiy xaritasidagi davlatlar soni, ularning maydoni bo‘yicha eng yirik va eng kichiklari, davlatlarning geografik o‘rni jihatidan tasniflanishi – orol,

yarimorol, dengizbo‘yi, ichki kontinental mamlakatlar va oxirgi yillarda mustaqilikka erishgan davlatlar, jahon mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi jihatidan tasniflash mezonlari, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlar, ularning asosiy guruhlari, o‘tish iqtisodiyotidagi davlatlar, mamlakatlarning boshqaruv shakli va davlat tuzilishi bo‘yicha tasniflanishi, respublika va monarxiya davlatlari, ularning tiplari, unitar va federativ davlatlar haqida keng ma’lumotlarga ega bo‘lish mumkin.

Jahonning tabiiy resurslari bobida tabiiy resurslar tushunchasi va ularning tasniflanishi, tabiiy resurslarni iqtisodiy baholash haqida tushuncha, tabiiy resurslarning hududiy majmuasi tushunchasi, tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik tushunchasi va uni hisoblash, jahon mamlakatlarining tabiiy resurslar bilan ta’minlanganlik darajasi jihatidan guruhlashtirilishi, dunyoning yirik yoqilg‘i havzalari, qora va rangli metallar eng ko‘p tarqalgan hududlar, asosiy foydali qazilmalar (neft, tabiiy gaz, ko‘mir, temir ruda)ning eng katta zaxiralariga ega bo‘lgan davlatlar, agroiqlim, yer, suv, o‘rmon, biologik, geotermal resurslarning geografiyasi, atrof-muhit va geografik muhit tushunchalari, geografik muhitning kengayishi, yangi yerlarning o‘zlashtirilishi, insoniyatning sayyoramiz tabiatiga ko‘rsatadigan ta’siri, landshaftlarning antropogenlashuvi va madaniylashuvi, antropogen, madaniy va buzilgan landshaftlar, tabiatdan foydalanish tushunchasi, ekstensiv va intensiv tabiatdan foydalanish, ekologik muammo tushunchasi, ekologik muammolarning 3 pog‘onasi: global, mintaqaviy va mahalliy, eng dolzarb global ekologik muammolar (“issiqxona effekti”, ozon “tuynuklari”, cho‘llanish, o‘rmonsizlanish, ichimlik suvi tanqisligi, bioxilma-xillikni saqlash), ekologik siyosat kabilar haqida ma’lumotga ega bo‘lish mumkin.

Jahon aholisi bobida jahon aholisining soni va o‘sishi, tug‘ilish, o‘lim va tabiiy o‘sish ko‘rsatkichlari, aholining ko‘payishining turlari, demografik o‘tish, demografik “portlash” va demografik siyosat tushunchalari, dunyo aholisining jinsiy tarkibi, dunyo aholisining yosh bo‘yicha tarkibi, yosh-jins piramidalari, dunyo aholisining irqiy tarkibi, asosiy va aralash irqlar, til oilalari va guruhlari, ularning geografiyasi, jahondagi eng yirik til oilalari, guruhlari va millatlar, jahondagi yirik dinlar va ularning geografiyasi, aholining notekis joylanishi va zichligi, jahon aholisining qit’alar kesimida joylanishi, aholisi eng ko‘p va kam davlatlar, aholi eng zich joylashgan areallar, zamonaviy migratsiya jarayonlari, shahar aholisi va uning o‘sishi, urbanizatsiya tushunchasi, xususiyatlari, urbanizatsiya darajasiga ko‘ra mamlakatlarning toifalarga bo‘linishi, aglomeratsiya va megalopolislar haqida bilimlar berish nazarda tutiladi. Shuningdek, ushbu tushunchalarning mazmuniga alohida e’tibor qaratiladi.

Jahon xo‘jaligi bobida Jahon xo‘jaligi tushunchasi. Xalqaro mehnat taqsimoti, rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlardagi farqlanishi, Jahon xo‘jaligining geografik “modeli”ning ko‘p markazlilik xususiyati. Hozirgi zamonda tez o‘sib borayotgan iqtisodiy markaz va qutblar. Xalqaro va regional iqtisodiy integratsiya jarayonlari. Transmilliy korporatsiyalar, Fan-texnika inqilobi va fanga oid tarmoqlar haqida tushuncha, jahon yoqilg‘i energetikasi sanoati (neft, gaz, ko‘mir), elektr energetikasi (IES, GES, AES), metallurgiya (qora va rangli), kimyo, mashinasozlik, yengil sanoat tarmoqlari geografiyasi, jahon qishloq xo‘jaligi mavzularida dehqonchilik (donli, moyli, ildizmevali, quvvat beruvchi, texnik ekinlar), chorvachilik (qoramolchilik, qo‘ychilik, cho‘chqachilik, parrandachilik, pillachilik, tuyachilik, yilqichilik, bug‘uchilik, darrandachilik) va baliqchilik geografiyasiga oid ma’lumotlar keltirilgan.

Jahon transporti bobida transportning turlari, jahon transport xo‘jaligining shakllanishi

va rivojlanishi, fan-texnika inqilobining transport tarmoqlarining rivojiga ta’siri haqida ma’lumotlar ochib berilgan.

Xalqaro iqtisodiy aloqalar geografiyasi mavzusida esa, xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillar, xalqaro iqtisodiy aloqalaring muhim yo‘nalishlari, xalqaro savdo, moliya-kredit munosabatlari, xalqaro turizm, mehnat resurslarining xalqaro migratsiyasi va xalqaro ilmiy texnik hamkorlik haqidagi ma’lumotlar bilan tanishadilar.

Jahonning regional tavsifi bo‘limida Yevropa, Osiyo, Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika regionlarining geografik o‘rni, chegaralari, siyosiy xaritasi, tabiiy sharoiti, tabiiy resurslari, aholisi, iqtisodiyoti va iqtisodiy rayonlari haqidagi ma’lumotlar o‘rganiladi, so‘ngra har bir region tarkibidagi iqtisodiy rivojlangan mamlakatlar quydagi ketma-ketlikda o‘rganiladi:

Yevropa mamlakatlari – Germaniya, Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi, Fransiya, Italiya, Rossiya Federatsiyasi;

Osiyo mamlakatlari – Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Tojikiston, Turkiya, Eron, Afg‘oniston, Pokiston, Xitoy Xalq Respublikasi, Fors qo‘ltig‘i arab davlatlari;

Afrika, Avstraliya va Okeaniya, Amerika mamlakatlari – Janubiy Afrika Respublikasi, Nigeriya, Misr, Avstraliya Ittifoqi, Amerika Qo‘shma Shtatlari, Kanada, Braziliya o‘rganiladi.

Yuqoridagi mamlakatlarning iqtisodiy geografik tavsifi quydagi reja asosida o‘rganiladi:

- tabiiy va iqtisodiy geografik o‘rni hamda chegaralari;
- siyosiy xaritasi;
- boshqaruv shakli va ma’muriy-hududiy tuzilishi;
- tabiiy sharoiti va resurslari;
- aholisi va mehnat resurslari;
- iqtisodiyoti (sanoati, qishloq xo‘jaligi, transporti);
- tashqi iqtisodiy aloqalari.

Yangi tahrirda ishlab chiqarilgan Milliy o‘quv dasturi o‘quvchilarning kompetensiyaviy yondashuviga asoslangan. Bu esa “Jahon iqtisodiy va ijtimoiy geogafiyasi” fanini o‘rganayotgan o‘quvchilarga o‘quv uslublarini, bilimlarni qo‘llanish va bilib olish metodlarini muntazam ravishda o‘rgatishni nazarda tutadi. O‘quvchilar fanni o‘rganishlari bilan birga soda, ammo yetarli darajada asoslangan iqtisodiy-geografik ta’riflarni mustaqil tuzishni, muammoli ta’lim metodikasidan foydalanishni o‘rganib olishlariga qaratilgan.

Geografiya fanida o‘qitishning innovatsion yondashuvlari joriy etib borilayotgan sharoitda zamonaviy ta’limiy talab va ehtiyojlariga monand tarzda darslik va metodik qo‘llanmalarni yanada mukammallashtirish hamda undan maktab geografiyasining boshqa sinflarida ham qo‘llash borasida rivojlangan davlatlar tajribasidan unumli foydalanishni kengaytirish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ishmuhamedov R.J., Abduqodirov A.A., Pardayev A.X. Ta’limda innovatsion texnologiyalar. – T.; 2008. -180 b.
2. Qurbonniyozov R. Geografiya o’qitish metodikasi. –Urganch: 2001. –212 b.
3. Fedorko V. va boshq. Geografiya. 10-sinf uchun darslik / — Toshkent: Respublika ta’lim markazi, 2022. — 192 b
4. Mo‘minov O. Geografiya ta’limi metodikasi. –T.: O‘qituvchi, 1986. –B. 208.
5. www.wikipedia.org